

# **Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti va Pittsburg Davlat Universitetining “2 + 2” dasturi bo'yicha konferensiya**

Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universitetida Mashinasozlik texnologiyasi fakulteti talabalar uchun Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti (TTPU) va Pittsburg Davlat Universiteti (PSU), Kanzas, AQSh, o'rtasida imzolangan “2 + 2” dasturiga bag'ishlangan konferensiya bo'lib o'tdi.

Yangi dastur TTPU talabalariga 2 akademik yil o'qish davomida to'plagan kredit soatlarini PSU ga o'tkazib, o'qishni u yerda davom ettirishga imkon beradi. Bundan tashqari, Mashinasozlik texnologiyasi fakulteti AQSh ning STEM dasturining bir qismi bo'lganligi sababli, o'qish yakunlanganidan so'ng uch yil davomida talabalar Amerika Qo'shma Shtatlarida qonuniy ravishda qolib, ixtiyoriy o'qish va ishlash imkoniyatga ega bo'ladilar. Shuningdek, ular ushbu muddatdan sayohat, tadqiqot ishlarini amalga oshirish yoki magistrlik dasturlarida o'qishni davom etirish uchun ham foydalanishlari mumkin.

Konferensiya davomida talabalarga Pittsburg Davlat Universiteti haqida ba'zi muhim bo'lgan ma'lumotlar va barcha ularni qiziqtirgan savollariga javoblar berildi.

Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i Hasan Xankeldiyevning ta'kidlashicha, PSU dasturi TTPU talabalari uchun bilimlarini kengaytirish va uzoq muddatli istiqbolda O'zbekistonda muhandislik rivojiga hissa qo'shish uchun noyob imkoniyat bo'lib xizmat qiladi.

Loyiha Pitsburg Davlat Universiteti va Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti o'rtasida 2018-yilda imzolangan o'zaro anglashuv memorandumi asosida ishlab chiqilgan.



